





# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

## Asosiy tarkib



Yirik korxonalar




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


## Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2022-yilning yanvar oylarida chakana savdo aylanmasi **768,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021-yilning yanvar oylariga nisbatan **28,8 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **172,3** mlrd. so'mni (**442,7 %** ga oshdi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **596,0** mlrd. so'mni (**16,7 %** ga oshdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **374,0** mlrd. so'mni (**16,8 %** ga oshdi) tashkil etdi.


## Tarkibiy qism, ulushlarda



## O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



## Uyushmagan savdo, mlrd. so'm






# HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

## UMUMIY MA'LUMOT


Viloyat bo'yicha 2022-yilning yanvar oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **768,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yil yanvar oylariga nisbatan **28,8 %** ga oshdi.



Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **77,6 %** va yirik korxonalar hissasiga **22,4 %** to'g'ri keldi.

## ENG YUQORI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Baxmal tumani **25,1 %** ulush bilan **192,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.




## ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Yangiobod tumani **1,0 %** ulush bilan **6,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.



## YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari	
2021- yil Yanvar		
2022- yil Yanvar		

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar oylari yakuniga ko'ra, **590,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar oylariga nisbatan **16,8** % ga oshdi. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **77,6** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Sharof Rashidov (99,9 %), Arnasoy (99,9 %), Zafarobod (99,9 %), Yangiobod (99,9 %), G'allaorol (99,8 %), Forish (99,9 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.





**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2021-yilning yanvar oyiga nisbatan deyarli barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatildi .

**Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda**





	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalarmlrd. so'm	2021- yil yanvar oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiyy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	768,3	128,8	172,3	542,7	596,0	116,7
Jizzax sh.	171,2	115,0	20,8	168,4	747,5	141,6
tumanlar:			0			
Arnasoy	14,1	110,1	0,2	124,5	768,1	142,5
Baxmal	192,9	254,1	140,7	1169,0	627,6	118,8
G'allaorol	53,9	112,1	1,6	160,7	766,6	142,4
Sharof Rashidov	93,9	104,7	0,2	92,3	768,1	142,5
Do'stlik	26,4	113,9	0,6	89,5	767,7	142,5
Zomin	97,0	108,2	6,8	243,6	761,5	141,9
Zarbdor	30,7	129,0	0,2	29,2	768,1	142,6
Mirzacho'l	18,7	119,9	0,1	30,3	768,2	142,6
Zafarobod	9,7	101,4	0,2	103,8	768,1	142,5
Paxtakor	30,4	100,2	0,7	89,7	767,6	142,5
Forish	22,7	101,1	0,2	33,7	768,1	142,6
Yangiobod	6,6	100,3	0,1	95,6	768,2	142,5

## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI


### Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda



### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2021-yilning yanvar oylariga nisbatan **4,4 m %** ga oshdi va **172,3** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **22,4 %** ulushiga to'g'ri keladi.




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **590,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021-yilning yanvar oylariga nisbatan **22,4 %** ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **77,6 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Sharof Rashidov (99,9%), Arnasoy (99,9 %), Zafarobod (99,9 %), Yangiobod (99,9 %), G'allaorol (99,8 %), Forish (99,9 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 22,4 % ni tashkil etib, eng katta ulush Jizzax shahri (12,4 %), Paxtakor (2,3 %), Baxmal (72,9 %) va Do'stlik (2,3 %) tumanlarida kuzatildi.





## JIZZAX VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2022-yil yanvar oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **538,4** ming so'm (2021-yil yanvar oylariga nisbatan **26,0** % ga oshdi), hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida o'sish sur'atlari kuzatildi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Jizzax shahri (**936,6** ming so'm), Baxmal (**1195,8** ming so'm), Zomin (**573,8** ming so'm) va Sharof Rashidov (**409,4** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2021- yil yanvar oylariga nisbatan, % da
Jizzax viloyati	538,4	126,0
Jizzax sh.	936,6	112,6
tumanlar:		
Arnasoy	301,2	108,5
Baxmal	1195,8	248,2
G'allaorol	304,6	109,7
Sharof Rashidov	409,4	101,9
Do'stlik	392,9	112,0
Zomin	573,8	105,7
Zarbdor	343,8	125,8
Mirzacho'l	352,9	117,9
Zafarobod	189,6	99,7
Paxtakor	396,7	98,1
Forish	240,5	99,5
Yangiobod	230,4	98,5



**Asosiy tarkib, foizda**




Dehqon bozorlari




Chorva (parranda) bozorlari


**O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda**



**Savdo aylanmasi hajmi va ulushi**



**Eng yuqori ulushga ega hududlar**



Viloyat bo'yicha 2022-yilning yanvar oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **146,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar oylariga nisbatan **8,4 %** ga oshdi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **66,0** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **2,8 %** ga oshdi), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **80,6** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **27,0%** ga oshdi) .





**UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:  
DEHQON BOZORLARI**



1,5 mlrd.  
so'm

**Tuzlamalar**



20,4  
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari**



2,6  
mlrd. so'm

**Quritilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari**  
(yong'oq, bodom, pista va  
boshqalarni qo'shgan holda)

6,3  
mlrd. so'm



**Non va non  
mahsulotlari**



2,7  
mlrd. so'm

**Sut va sut  
mahsulotlari**

4,4  
mlrd. so'm



**Tuxum**

8,0  
mlrd. so'm



**Don mahsulotlari (mosh,  
loviya, no'xat, guruch va  
boshqalar)**

12,8  
mlrd. so'm



**Chorva mollari va  
parrandalar uchun har xil  
yem-hashaklar**

0,4  
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol  
ko'chatlari (manzarali va  
qishloq xo'jaligi)**

2022-yilning yanvar oyida viloyatning Zafarobod va Sharof Rashidov tumanlaridan tashqari barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 66,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (20,4 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

1,9  
mlrd. so'm



**Ziravorlar**

5,0  
mlrd. so'm



**Tovuq go'shti**

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2022-yilning yanvar oylarida viloyatning Jizzax shahri va Zafarobod tumanidan tashqari barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **80,6** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **27,8** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **23,6** mlrd. so'mni, otlar **1,7** mlrd. so'mni, parrandalar **0,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O‘SISH SUR‘ATLARI**

2022- yilning yanvar oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,7 %** ni tashkil etib, **13,2** mlrd. so‘mga yetdi va 2021- yil yanvar oylariga nisbatan **7,8 %** ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **100,0 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining  
o‘shish sur‘atlari, foizda**



	Jami, mln. so‘m	2021- yil yanvar oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so‘m	2021- yil yanvar oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	13236,7	103,4	12750,5	103,2
Jizzax sh.	6640,9	103,8	6541,3	103,7
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	90,3	103,3	71,1	102,0
Baxmal	242,8	103,3	188,9	102,0
G‘allaorol	816,3	103,5	772,9	103,3
Sh. Rashidov	2293,0	103,1	2223,0	102,9
Do‘stlik	442,1	103,2	415,8	102,9
Zomin	908,2	103,0	857,9	103,1
Zarbdor	378,9	102,2	356,6	102,0
Mirzacho‘l	478,0	101,9	456,6	101,7
Zafarobod	118,8	103,3	100,6	102,5
Paxtakor	406,4	102,4	380,0	102,1
Forish	345,8	103,6	318,5	103,3
Yangiobod	75,4	102,7	67,5	102,1

## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **165,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar oylariga nisbatan **9,2** % ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **29,7** mlrd. so'mni (**35,9** % ga oshdi), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **136,0** mlrd. so'mni (**4,7** % ga oshdi) tashkil etdi.


### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar

Kichik korxonalar

### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar






**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR  
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O‘SISH SUR‘ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur‘atlariga ega yirik korxonalar Jizzax shahar (**133,9 %**), Baxmal (**140,2%**) va Do‘stlik (**99,7 %**) tumanlarida kuzatildi.


**Ulgurji savdo aylanmasi o‘shish sur‘atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so‘m	2021- yil yanvar oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2021- yil yanvar oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so‘m	2021- yil yanvar oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	165,8	109,2	29,8	135,9	136,0	104,7
Jizzax sh.	96,0	109,5	19,6	133,9	76,4	104,7
tumanlar:						
Arnasoy	0,3	104,1	0,00	123,4	0,3	104,1
Baxmal	13,1	129,8	9,98	140,2	3,1	104,8
G‘allaorol	4,8	105,0	0,01	89,4	4,8	105,1
Sh. Rashidov	10,6	104,6	0,01	58,8	10,6	104,7
Do‘stlik	8,3	105,0	0,01	99,7	8,3	105,0
Zomin	17,5	104,7	0,00	61,6	17,5	104,7
Zarbdor	2,2	104,9	0,00	64,0	2,2	104,9
Mirzacho‘l	0,4	102,4	0,01	53,3	0,4	103,9
Zafarobod	1,2	104,6	0,00	0,0	1,2	104,9
Paxtakor	1,7	107,6	0,06	248,4	1,6	105,4
Forish	8,9	104,6	0,06	174,8	8,8	104,4
Yangiobod	0,8	103,7	0,00	0,0	0,8	104,9




## YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar oylari yakuniga ko'ra, **136,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar oylariga nisbatan **4,7** % ga oshdi. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **82,0** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Zomin (**99,9** %), Yangiobod (**99,9** %), G'allaorol (**99,9** %), Forish (**99,9** %), Sharof Rashidov (**99,9** %) tumanlarida yuqori bo'lgan.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi  
Tel.:72-221-51-26